Mamlakatimiz turizmini rivojlantirishda investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha o'tkazilayotgan islohotlarning o'rni.....	823
Ayubov Ilyos Ilxomovich, Nuridinov Bexruz Akbar o'g'li	
Hududlarda tadbirkorlarning islomiy investitsiyalardan foydalanish niyatlariga undovchi omillarning empirik tadqiqoti.....	829
Irgasheva Gulbahor	
Davlat vositalari yordamida innovatsion faoliyatni moliyaviy rag'batlantirish yo'nalishlari	836
Baxriddinov Nodirbek Zamirdinovich	
Важность качества управления на предприятиях общественного питания.....	842
Абдуллаева Зульфия Иззатовна, Махмудов Суннатжон Абдужаббор Угли	
O'zbekistonda "yashil" moliyalashtirishni rivojlantirish yo'nalishlari	848
Shaislamova Nargiza Qabilovna	
Mahalliy budjetning qo'shimcha daromadlarini shakillantirish yo'nalishlari.....	856
Yuldashev Javohirbek Ikromjon o'g'li	
Davlat moliyaviy nazoratida axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish masalalari	860
Ro'zimatova Nigora Abdullaevna	
Принципы «справедливой стоимости» в мсфо: достоинства и проблемы применения в банках узбекистана	869
Айтмуродова Рушана Бахтиеровна	
Yashil iqtisodiyot loyihalarini moliyalashtirishning nazariy jihatlari	876
Allaberganova Asalxon Kadirovna	
Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish hamda amalga oshirish tartibini takomillashtirish	880
Xasanov Ruslan Raxmatovich	
Yirik soliq to'lovchilar va ularning investitsiyaviy faolligini investitsiyaviy chegirmalar orqali rag'batlantirish	883
Tohirov Shuhrat Niyoz o'g'li	
MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlashda foydalaniladigan tuzatuvchi buxgalteriya yozuvlar.....	888
Sheraliyev Xayrulla Karimovich	
Qurilish korxonalarida investitsiyalarni boshqarishning xorijiy tajribalari va ularni mamlakatimizda foydalanish yo'llari	894
Karimov Inomjon Ortikbaevich	
Davlat xaridini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy amaliyati va uni iqtisodiyotga ta'siri.....	900
Burxanov G'ofur Baxodirovich	
Влияние технологических инноваций на международные финансовые рынки, а также на финансовый рынок нашего государства.....	904
Бабаназарова Гульзар Зиуатдиновна	
Strategic development of global companies in modern conditions.....	909
Nasimov Bakhtiyor Vasiyevich	
Hududlarda sog'liqni saqlash tizimi asosiy ko'rsatkichlarini noaniq modellashtirish yordamida kompleks baholash.....	914
Ismoilova Dilfuza Ibodullayevna	
Tijorat banklari faoliyatini transformatsiyalashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	923
Kulboyeva Nargiz Majitovna	
Сущность и причины возникновения проблемных кредитов	929
Улмасой Ахмедова Хусан кизи	
The use of digitalization and technologies in updating credit policy.....	934
Otabek Ma'mirjon ogli Azimov	
Финансовое моделирование сценариев развития предприятия с использованием методов многокритериального принятия решений (МКПР).....	938
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich, Yuldosheva Gulnoza Abdinabievna	
Yuqori samarali energiya tejash texnologiyalari va katalizga asoslangan konversiya jarayonlari.....	945
Yusupov Ulug'bek Mamayusupovich	
Kambag'allikni kamaytirish maqsadida aholining ijtimoiy himoyalash mexanizmini takomillashtirish	951
Kasimova Gulyar Axmatovna	



Tijorat banklarida foiz riski muammosi	957
Turdiyev Abdulhakim Kulbazarovich	
Milliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqishdagi to'siqlarni bartaraf qilish choralari.....	964
Abdivaliyev Shahzodbek Xayrullayevich	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyalashtirish usullari.....	970
Kaxorova Zamira Safaraliyevna	
O'zbekistonda mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatlarini takomillashtirish konsepsiyasi: strategik yondashuv.....	974
Yaxshiyev Xusniddin Tolibovich	
O'zbekiston sanoatida "yashil texnologiyalar" dan foydalanish va barqaror rivojlanish.....	979
Ubaydullaeva Gulchehra Erkabaevna	
Sanoat korxonalarida resurslarini rejalashtirish (ERP) tizimlarini joriy etishning orqali iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash yo'llari.....	985
Azizov Abdulla Abdisalamovich	



SANOAT KORXONALARIDA RESURSLARINI REJALASHTIRISH (ERP) TIZIMLARINI JORIY ETISHNING ORQALI IQTISODIY SAMARADORLIKNI TA'MINLASH YO'LLARI



Azizov Abdulla Abdisalamovich

ТДИУ, mutaql tadqiqotchi
a.azizov@uzpharmagency.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada sanoat korxonalarida ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlarini joriy etish orqali resurslarni samarali boshqarish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari tahlil qilinadi. ERP tizimlari orqali ishlab chiqarish, moliya, inson resurslari, loyiha boshqaruvi va mijozlar bilan aloqalar singari funksional jarayonlar yagona axborot muhiti asosida boshqarilishi mumkinligi isbotlab berilgan. Tadqiqotda ERP tizimining funksional modullari, ularning sanoat korxonalarida qo'llanish sohalari va amaliy samaradorlik ko'rsatkichlari chuqur tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ERP tizimi, sanoat korxonasi, ishlab chiqarish, axborot texnologiyalari, iqtisodiy samaradorlik, loyiha boshqaruvi.

Abstract: This article explores the methods for ensuring economic efficiency through the implementation of Enterprise Resource Planning (ERP) systems in industrial enterprises. It demonstrates how ERP enables integrated management of production, finance, human resources, project management, and customer relations within a unified information environment. The study provides a detailed analysis of ERP modules and their applicability across various industrial sectors.

Key words: ERP system, industrial enterprise, production, information technology, economic efficiency, project management.

Аннотация: В статье рассматриваются пути повышения экономической эффективности за счёт внедрения систем планирования ресурсов предприятия (ERP) на промышленных предприятиях. Установлено, что ERP-системы обеспечивают интегрированное управление производством, финансами, человеческими ресурсами, управлением проектами и отношениями с клиентами в рамках единой информационной среды. Проведён анализ функциональных модулей ERP и их применения в различных отраслях промышленности.

Ключевые слова: ERP-система, промышленное предприятие, производство, информационные технологии, экономическая эффективность, управление проектами.

KIRISH

Raqamli transformatsiya jarayoni bugungi sanoat korxonalari oldida turli murakkabliklarni keltirib chiqarmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, boshqaruvning shaffofligi, ma'lumotlar oqimini real vaqt rejimida kuzatish, xatolarning oldini olish va xarajatlarni kamaytirish dolzarb vazifalardandir. ERP tizimlari aynan mana shu muammolarning tizimli yechimini taklif etadi.

ERP tizimlari korxonaning barcha funksional bloklarini yagona platformaga birlashtirib, ishlab chiqarishdan tortib, moliya, logistika, inson resurslari va hatto marketinggacha bo'lgan jarayonlarni raqamli



muhitda integratsiyalashgan holda boshqarishni ta'minlaydi. O'zbekiston korxonalari uchun bu tizim nafaqat samaradorlikni oshirish, balki xalqaro bozorga integratsiyalashishda ham muhim raqobat ustunligini beradi. Shu boisdan, ERP tizimlarini joriy etish va ularning turli modullari asosida boshqaruvni kuchaytirish bugungi kunning ustuvor yo'nalishidir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonada samarali axborot oqimi biznesni boshqarish nuqtayi nazaridan juda muhimdir. Kompaniyalarda investitsiyaviy, moliyaviy, ishlab chiqarish, xarid jarayonlari, fondlar va boshqalar bo'yicha to'liq, ishonchli va tezkor ma'lumotsiz ishlashi mumkin emas. Shuning uchun boshqaruvda dasturiy axborot tizimlarini qo'llash lozim. Bunday tizimning namunasi Korxona Resurslarini Rejalashtirish (ERP) tizimi ekanligi borasida Agnieszka Ociepa-Kubicka [1] tadqiqotlarida kuzatish mumkin.

ERP tizimi integratsiyalashgan ma'lumotlarni boshqarish tizimining bir qismidir. ERP tizimlari korporativ boshqaruvda resurslarni rejalashtirish tizimlarining ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlash orqali korxonalarni boshqarishni qo'llab-quvvatlovchi ma'lumotlar bazasi tizimi sifatida ham ma'lumdir. Shuningdek, ular "kompaniyaning ichki va tashqi biznes jarayonlarini optimallashtirishga yo'naltirilgan integrallashtirilgan funksional modullar to'plami" sifatida L. Zhang va boshqalar [2] tadqiqotlarida qayd etilgan.

Bugungi kunda axborot oqimining interaktivligi tobora muhim ahamiyat kasb etayotganligi sababli, barcha tizimlarda, ayniqsa investitsion loyihalarni boshqarishda ham faol qo'llanilayotganligi borasidagi qarashlar S. Hamilton [3] tomonidan tadqiq etilgan. ERP menejmenti buxgalteriya va moliyalashtirish, inson resurslarini boshqarishdan, hujjat aylanishidan, hisobotga qadar va boshqa biznesning barcha asosiy sohalarini qamrab olgan. ERP tizimlari umumiy ma'lumot almashish va ma'lumotlarga real vaqtda kirishga qodir bo'lgan biznes dasturiy ta'minot paketlar majmuasi sifatida Wen-Hsien Tsai [4] tadqiqotida keltirilgan.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda ERP tizimining turli sohalarida qo'llanilishi tahlil qilinib, ularning o'zaro afzalliklari va kamchiliklari taqqoslama tahlillar asosida aniqlangan. ERP tizimlarining sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirishdagi roli asosida tadqiqot gipotezalari kelgusi tadqiqotlar uchun asos sifatida ishlab chiqiladi. Adabiyotlar tahlili orqali sanoat korxonalarida ERP tizimini joriy etishdan kutilayotgan iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha takliflar beriladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

ERP tizimi – bu korxonaning ish jarayonlarida rejalashtirishni, hisob-kitoblarni va tahlilni avtomatlashtirish uchun integratsiyalashgan axborot muhitini (IAM) tashkil etish imkonini beruvchi dasturlar majmuasi sanaladi. Korxonada asosiy IAM ERP tizimining o'zi sanaladi [5].

Andirianov [6] ERP tizimining asosiy vazifalari quyidagilar deb hisoblaydi:

- ishlab chiqarilayotgan mahsulot tarkibini belgilab berishga qaratilgan texnologik jarayonlarni boshqarish;
- ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini rejalashtirish;
- mahsulot ishlab chiqarish jarayonini rejalashtirishda xom-ashyolarga ehtiyojni rejalashtirish, yetkazib berish hajmini belgilash;
- mavjud zaxiralarni va sotib olishlar hajmini belgilash, rejalashtirish, boshqarish;
- ishlab chiqarish quvvatlarini rejalashtirish;
- moliyaviy boshqaruvni tashkil etish, tuzilgan moliyaviy-iqtisodiy dasturlarning bajarib borilishini nazorat qilish;
- amalga oshirilayotgan loyihalarni ularning amalga oshirilishi jarayonida kuzatib borish.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlanishning asosiy "kaliti" – ichki biznes jarayonlarning axborot-texnologik ta'minoti va yagona axborot muhitini yaratish bo'lib qolmoqda. Bu masalalar sohaning o'ziga xosligi aks etgan zamonaviy ERP tizimlarini tatbiq etish orqali hal etiladi.

ERP konsepsiyasining paydo bo'lishi korporativ boshqaruv amaliyotida internet texnologiyalarining keng qo'llanilishi bilan bog'liq bo'ldi. Bu yerda gap birinchi navbatda yetkazmalar zanjirini boshqarish (Supply Chain Management – SCM) va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni boshqarish (Customer Relationships Management – CRM) kabi yondashuvlar ekanligini Sh. O'. Djanadilov [7] o'z tadqiqotlarida asoslagan.

Tadbirkorlik faoliyatining turli sohalarida o'rnatilgan aloqalar xilma-xilligi tufayli ERP tizimi modullarining ideal tasnifini namoyish qilish qiyin. Biroq, ERP tizimini qo'llashning bir qancha asosiy yo'nalishlari mavjud bo'lib, ular 1-jadvalda keltirilgan.



1-jadval. ERP tizimidan foydalanishning sohaviy yo'nalishlari, Y. Moon (2007).

Modullardan foydalanish sohalari	Foydalanish yo'lanishlari	Modullar nomi
Moliyaviy sohada	Kompaniyaning buxgalterlik hisobini o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan ERP standartining o'ziga xos va ajralmas maydoni: buxgalteriya hisoboti, hisobot, yetkazib beruvchi va mijoz hisob varaqlari, asosiy vositalarni boshqarish, nazorat qilish.	Buxgalteriya hisobi va soliq tizimini boshqarish
Logistika sohasida	Umumiy ta'minot va sotuvni rejalashtirishdan va keng belgilangan omborlarni boshqarishdan iborat. Yaxshiroq ishlab chiqilgan tizimlar partiyalarning o'lchamlarini optimal-lashtirish va kosmik boshqaruv kabi xususiyatlarni taqdim etishi mumkin.	Sotuv omborlarini rejalashtirish
Kadrlar va ularni tayyorlash sohasida	Vaqt tizimini boshqarish, malaka oshirishni boshqaruvi, martabani rejalashtirish, muayyan lavozimga mos keladigan xodimlarni tanlash masalalari.	Xodimlar ish haqi va taqsimotini boshqarish
Ishlab chiqarish sohasida	Ishlab chiqarishni boshqarishning keng doirasini qamrab oladi: rejalashtirish va ishlab chiqarish quvvatlarini ishlatish, resurslar talablarini rejalashtirish, resurslardan foyda-lanish inventarizatsiyasi, mahsulotni baholash.	Ishlab chiqarish va ta'minot zanjirini boshqarish
Loyiha boshqaruvi sohasida	Xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar uchun munosib boshqaruv tizimini yaratish imkonini beradi. Loyiha jamoasini boshqarish, muammolarni boshqarishni, rejalashtirishni avtomatlashtirilgan tizim asosida boshqarish imkonini beradi.	Loyihalarni boshqarish va ish rejalar bilan ishlash
Mijozlar bilan aloqalarni boshqarish sohasida	Bu - boshqalar qatorida savdo jamoasi boshqaruvi, mijozlarga xizmat ko'rsatish, sotish samaradorligi prognozlar, evolyutsiya boshqaruvini tartibga solish, marketing kampaniyasi boshqaruvi va boshqalarni o'z ichiga oladi.	Bashoratlash

ERP tizimi modullarining turli sohalarga yo'naltirilganligidan kelib chiqib, sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish jarayonlarida tizimdan foydalanish imkoniyatlari mavjudligi bo'yicha gipotezani qo'yish mumkinligi asoslanadi.

ERP tizimlarining rivojlanishi veb-texnologiyalar taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, 1980–1990-yillarda sanoatni kompyuterlashtirish, yangi dasturiy mahsulotlarni joriy etish, ta'minot zanjiri va resurs salohiyatini baholash kabi yirik biznesni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan harakatlar natijasida yuzaga kelgan.

Keyingi davrlarda ERP tizimlari barcha tarmoq va sohalarni qamrab olib, nafaqat korxonalarning resurs tizimlarini boshqarish, balki korporativ tizimlarni rejalashtirish, ishlab chiqarish, sotish, marketing, logistika, buxgalteriya, moliya, inson resurslarini boshqarish, loyihalarni boshqarish, inventarizatsiyani boshqarish, xizmat ko'rsatish va transport kabi funksional sohalarni qo'llab-quvvatlovchi modullarni ham o'z ichiga olgan.

Turli tarmoq va sohalarda loyihalarni boshqarish usullarini o'rganish orqali ERP tizimidan foydalanish va uning hayotiylik davri bo'yicha A. Ara, Abdullah S. Al-Mudimigh [8] tomonidan tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ERP tizimining boshqaruv, jarayonlar va logistika tizimlarini boshqarishdagi muhim xususiyatlari ochib berilgan.

Ishlab chiqarishning texnologik holatlari bo'yicha korxonalar inqirozining 16 ta omilining birinchi 6 tasi aynan ishlab chiqarishda loyihalarni boshqarish sohasidagi muvaffaqiyatsizlik sababli yuzaga kelishi, yana 3 ta kamchilik esa boshqaruvning zaif jihatlariga bog'liqligi aniqlangan. Eng yaxshi 10 ta ERP boshqaruvidagi muhim omillar sifatida loyiha hajmi, kadrlar, xatarlarni boshqarish, asossiz muddatlar, moliyalashtirish, tashkiliy siyosat, qamrov doirasi, kutilmagan xatarlar va o'zgartirishga qarshilik kabi omillar C. Trepper [9] tomonidan asoslab berilgan.

ERP tizimini joriy etish bo'yicha belgilanadigan chora-tadbirlar va loyihalashtirish jarayonlari bilan bog'liq muammolarga qaratilgan tadqiqotlar Goeun Seo [10] tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, tizimni yirik birlashmalar va universitetlarga joriy etish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar o'rganilgan. Shuningdek, ERP tizimini joriy etish bilan bog'liq jarayonlar tasnifi Torsten Munkelt va Sven Völker [11] tadqiqotlarining ham asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Tadqiqotda ERP tizimlarini tanlash, joriy etish va barqaror boshqarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, uni amalga oshirish jarayoni uch asosiy bosqichga ajratilgan: tanlash, joriy etish va operatsiyalar.



Tadqiqotchilar fikricha, ERP tizimlarini joriy etish quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: loyiha boshqaruvi, biznes jarayonlarini qayta tashkil etish, tizimni tanlash mezonlari, asosiy foydalanuvchilarni aniqlash, ma'lumotlarni ko'chirish, foydalanuvchilarni o'qitish, hisobotlarni sozlash. ERP tizimida ishlash esa ERP funksiyalaridan foydalanish va ma'lumotlarni boshqarish kabi bosqichlarga ajratiladi.

Tizimlarni tanlash, joriy etish va barqaror boshqarish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularni amalga oshirish jarayoni uch asosiy bosqichga ajratilgan: tanlash, joriy etish va operatsiyalar. Tadqiqotchilar fikricha, tizimlarni joriy etish loyihani boshqarish, biznes jarayonlarini qayta tashkil etish, tizimni tanlash mezonlari, asosiy foydalanuvchilarni tanlash, ma'lumotlarni ko'chirish hamda foydalanuvchilarni o'qitish, hisobot berish va sozlash jarayonlarini o'z ichiga oladi. ERP tizimida ishlash esa ERP funksiyalaridan foydalanish va ma'lumotlarni boshqarish bosqichlariga ajratiladi.

ERP tizimlarining ishlash samaradorligini baholash bo'yicha tadqiqotlar Chun-Chin Wei [12] tomonidan olib borilgan bo'lib, 7 ta omil bo'yicha jami 40 dan ortiq indikatorlar asosida tizim samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarning ahamiyatlilik darajalari o'lchangan.

ERP tizimining rivojlanish evolyutsiyasiga ko'ra, korxonaning korporativ funksiyalarini integratsiyalash uchun mo'ljallangan ERP tizimi internetga asoslangan CRM, SCM va boshqa Internet-biznes modellari mos tarzda kengaytirilib, veb-interfeysli dasturiy yechimlarni joriy etdi. Mohammad A. [13] ta'kidlaganidek, SAP'ning internetga ulangan integratsiyalashgan ERP tizimi – mySAP.COM (SAP, 2001) – ERP, CRM va internet portallari yordamida bir-biriga bog'langan mahsulotlar majmuasidan iborat.

ERP tizimidan loyihalarni boshqarish jarayonlarida foydalanish muammolariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ham keng ko'lamda olib borilgan bo'lib, asosiy yo'nalishlar qatorida loyiha boshqaruviga ERP tizimini joriy etish, uning metodologiyasi, amaliyoti va samaradorlik masalalari alohida o'rin egallaydi.

Globalashuv jarayoni raqobat va sifatni oshirishga olib kelmoqda. Shu sababli to'qimachilik sanoatida raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun axborot texnologiyalari bilan integratsiyalanuvchi tizimlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. ERP – bu ma'lumotlarning yagona nuqtaga kirishiga imkon beruvchi integratsiyalashgan tizim bo'lib, to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ushbu ma'lumotlarga bog'liq bo'lgan barcha funksiyalar uchun yagona, umumiy ma'lumotlar bazasini yaratishni ta'minlaydi.

Yirik korxonalarning asosiy muammolaridan biri – boshqaruv, marketing va moliya sohalarida katta hajmdagi ma'lumotlarni boshqarishda yuzaga keladigan qator kamchiliklardir. Shunga qaramay, ERP tizimini joriy etish orqali moliyaviy ma'lumotlarning ko'payishi, buxgalteriya jarayonlarining raqamlashtirilishi va hisob-kitoblarning elektron shaklga o'tkazilishi rag'batlantiriladi hamda boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

ERP tizimi investitsion loyihalarni boshqarish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatib, loyihalarni amalga oshirish va ularning interaktivligini, hujjatlar almashinuvi va shaffofligini ta'minlashda, investitsion loyihalar bo'yicha korporativ boshqaruvni rivojlantirishda yuqori ahamiyatga egadir.

Shunga ko'ra, yengil sanoatda ERP tizimini soha yo'nalishidan kelib chiqib, bosqichma-bosqich joriy etib borish investitsion loyihalarni amalga oshirish jarayonida optimal boshqaruv imkoniyatini beradi va korxonalar raqobatbardoshligini oshirishning muhim shartidir.

O'zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarida ERP tizimini joriy etish bilan bog'liq asosiy muammolarni tahlil qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish samaradorligini baholash, mavjud holatni sanoatga yo'naltirilgan moliyaviy resurs imkoniyatlari asosida aniqlash zarurdir.

O'zbekiston Respublikasi sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati va samaradorligi, investitsion loyihalarning amalga oshirish bosqichlaridagi muammolar, ularni bajarish muddatlari va tartib-qoidalarga muvofiqligi ERP tizimlaridan foydalanishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Investitsion loyihalarni boshqarish esa turli menejment usullari asosida, har bir bosqichning o'ziga xos baholash prinsiplari qo'llanilgan holda amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Agnieszka Ociepa-Kubicka. (2017). Advantages of using enterprise resource planning systems (ERP) in the management process. World Scientific News, 89, 237–243.
2. Zhang Z., Banerjee P. (2003). Critical Success Factors of Enterprise Resource Planning Systems Implementation Success in China. Proceedings of the 36th Hawaii International Conference on System Sciences (HICSS '03).
3. Hamilton S. (2002). Maximizing Your ERP System: A Practical Guide for Managers. NY.: McGraw-Hill – 350 p.
4. Wen-Hsien Tsai, Shu-Ping Chen va boshq. (2010). A Study of the Impact of Business Process on the ERP System Effectiveness. International Journal of Business and Management, Vol. 5, No. 9; September, p. 28.
5. Nesbit J. (2013). International economic relations. M.: Dorchester – 419 p.
6. Андрианов А.Ю., Валдайцев С.В., Воробьев П.В. ва бошқ. (2008). Инвестиции: учебник. 2-е изд., перераб. и доп. – М.: ТК Велби, Изд-во Проспект, с. 58.



7. Джанадилов Ш.Ў. (2014). Суғурта ахборот тизимларини лойиҳалаштиришнинг ERP II модели. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журналы, № 6, ноябрь–декабрь. http://www.iqtisodiyot.uz/sites/default/files/maqolalar/36_Sh_Djanadilov.pdf
8. Anees Ara, Abdullah S. Al-Mudimigh. (2011). The Role and Impact of Project Management in ERP Project Implementation Life Cycle. Global Journal of Computer Science and Technology, Volume XI, Issue V, Version I.
9. Trepper C. (1999). ERP Project Management Is Key to a Successful Implementation. <http://itmanagement.earthweb.com/entdev/article.php/614681>
10. Goeun Seo. (2013). Challenges in Implementing Enterprise Resource Planning (ERP) System in Large Organizations: Similarities and Differences Between Corporate and University Environment. Master of Science in Management Studies at the Massachusetts Institute of Technology, p. 57.
11. Torsten Munkelt, Sven Völker. (2013). ERP systems: aspects of selection, implementation and sustainable operations. International Journal of Information Systems and Project Management, Vol. 1, No. 2, 25–39. DOI: 10.12821/ijispm010202. <https://www.sciencesphere.org/ijispm/archive/ijispm-010202.pdf>
12. Chun-Chin Wei. (2008). Evaluating the performance of an ERP system based on the knowledge of ERP implementation objectives. Springer-Verlag London Limited. Int J Adv Manuf Technol, 39:168–181. DOI: 10.1007/s00170-007-1189-3
13. Mohammad A. Rashid, Liaquat Hossain, Jon David Patrick. (2002). The Evolution of ERP Systems: A Historical Perspective. Idea Group Publishing. <https://faculty.biu.ac.il/~shnaidh/zoooloo/nihul/evolution.pdf>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>